

ISAJON SULTON ASARLARIDA BOSH OBRAZ TUSHUNCHASI

Maxsutbaeva Nigora Rashid qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat Pedagogika Instituti Turkiy tillar fakulteti O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi talabasi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada Isajon Sulton jodiy asarlarida an'anaviy noan'anaviy usullarning qo'llanilish darajasi yetakchilikni yuzaga keltiradi. Asarlar bir ko'ringanda xalqona ruhda o'zbek milliy folklorining ifodalanishi asosida yuzaga kelgandek ko'rinsada, milliy qadriyatlarga uyg'un holda keluvchi jahon adabiyoti yo'nalishlari haqida ham so'z yuritiladi. Bunga misol tariqasida jahon adabiyoti voqeliklarda uchraydigan hikoyalar, rivoyatlar asosida yaratilgan asarlar ularga nazira tariqasida bitilgan asarlarini keltirish mumkin. Shunga ko'ra biz misol uchun asarlaridagi tush, oy yoki balliq kabi obrazlarning bir necha asarlar tarkibida bo'lishiga qaramasdan Isajon Sulton asarlaridagi tahlil darajasiga e'tibor qilishimiz kerak.

KALIT SO'ZLAR: Bosh obraz, tor ma'nodagi obraz, noodatiy tasvir, milliy qadriyatlar, ijodkor ideali.

Isajon Sulton asarlarning Ulug'bek Hamdam asarlari bilan taqqoslanish darajasi bugungi kunda dolzarblik masalasini yuzaga keladigan adabiy-badiiy asarlarda obraz tushunchasini ifodalanishi roman, hikoya va boshqa turdagi asarlardan qat'iy nazar o'ziga xoslik asosida yuzaga keladi. Bu ham voqelikning teran va reallik asosida yuzaga kelishi bilan bog'liqdir. Ulug'bek Hamdam ham asarlarida ham noodatiy tasvir uslublari yetakchilik qiladi. Isajon Sulton asarlarida esa noan'anaviy uslublari va xalqona, milliy qadriyatlarga asoslangan uslubning yangilangan tahriri, portret asosida asvirlarda beriladigan birinchi darajali vazifadir. Turli xil qadriyatlarining ifodalanuvchilar afsonalar, rivoyatlar asos qilib olinadi. Shunga ko'ra makon va zamonning turli xil vaqt asosida yuzaga kelishi davrda uchuvchi voqeliklarning munosabat bilan ifodalanishi ba'zi holatlarda tipologik muhitda ba'zi holatlarda esa struktural ruhda ifodalab beriladi. Bu ham asarning ko'tarinkilik darajasini oshirishga xizmat qilsa ajab emas.

“Ko'lamlilik jihatidan I.Kovalik, M.Kotsyubinskaya tahlillari asosida D.Quronov obrazlarni megaobraz, makroobraz, mikroobraz kabi turlarini keltirib o'tadi. E'tiborlisi, bu kabi obraz turlari boshqa nazariyalarda uchramaydi. Bundan tashqari obrazlarning ifoda va tasvir planlari munosabatiga ko'ra ham tasnifni boshqa adabiyot nazariyalarida uchramagan avtologik, metalogik, superlogik obrazlarga tasnif qiladi. Bu tasniflar ham nazariyalarda berilmagan. Adabiyot hayotni ikki xil yo'l bilan tadqiq etadi: biri - tasdiqlash, ikkinchisi inkor etish. Shunga ko'ra ko'pchilik adabiyotshunoslar obrazlarni ijobiy va salbiy obrazlar kabi turlarga ajratishgan. Bu jihatdan farqli ravishda D.Quronov ijobiy va salbiy obrazlarni ijodkor estetik ideali bilan munosabatiga ko'ra yondashadi. Adabiyotshunoslikda badiiy obraz keng va tor m'noda ishlatiladi.

Biz keng ma'nodagi obrazlarga ijodkor tomonidan borliqdagi barcha unsurlarning kuzatilgan, qayta ishlangan aksini ko'ramiz. Badiiy asarlar tahlilida kichik bir detalgacha bachasi ma'lum bir g'oyaviy yuk ifodalaydi va obraz sifatida nazarda tutiladi. Obrazning tor ma'noda qo'llanilishida esa badiiy asarlardagi inson obrazi asos qilib olinadi”.[1] Shuningdek, Isajon Sulton asarlarning Ulug'bek Hamdam asarlari bilan taqqoslanish darajasi bugungi kunda dolzarblik masalasini yuzaga keladigan adabiy-badiiy asarlarda obraz tushunchasini ifodalanishi roman, hikoya va boshqa turdagi asarlardan qat'iy nazar o'ziga xoslik asosida yuzaga keladi. Bu ham voqelikning teran va reallik asosida yuzaga kelishi bilan bog'liqdir. Ulug'bek Hamdam ham asarlarida ham noodatiy tasvir uslublari yetakchilik qiladi. Isajon Sulton asarlarida esa noan'anaviy uslublari va xalqona, milliy qadriyatlarga asoslangan uslubning yangilangan tahriri, portret asosida asvirlarda

beriladigan birinchi darajali vazifadir. Turli xil qadriyatlarning ifodalanuvchilar afsonalar, rivoyatlar asos qilib olinadi. Shunga ko'ra makon va zamonning turli xil vaqt asosida yuzaga kelishi davrda uchuvchi voqeliklarning munosabat bilan ifodalanishi ba'zi holatlarda tipologik muhitda ba'zi holatlarda esa struktural ruhda ifodalab beriladi. Bu ham asarning ko'tarinkilik darajasini oshirishga xizmat qilsa ajab emas.

“Qahramon-ma'lum bir asardagi boshqa personajlardan yuqori o'rinda turib asar g'oyaviy mazmunini shakllantiruvchi asosiy obraz hisoblanadi. Sujet voqealari qahramon atrofida birlashadi, boshqa personajlar u bilan bog'liq holda asarga kiritiladi. Personajlar qahramon bilan integrativ aloqada (hokim-tobe)² bo'lib asarda tayanch, yordamchi vazifasini o'taydi”. [2] Adabiy-badiiy asarlarni tahlil qilish va o'quvchi-yoshlarga o'rgatish masalasining dolzarbligi bugungi kunda qalam ahli tomonidan ilgari surilayotgan g'oyalardan biridir. Shunga ko'ra Isajon Sulton asarlarida bosh obraz va badiiy asarlarda obraz masalasini yuzaga kelish va ularni ifodalash xususiyatlari turli xil qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Isajon Sulton yaratgan hikoya va qissalarda turli xil obrazlarning mifologik tasvirda ifodalanishi yuzaga keltirgan voqelik bu talqindir. Tarixiy rivoyatlar va afsonalar asosiga yaratilayotgan hikoyalar qissalarida mavzu ko'lamini yosh darajasi uchun tahliliy jihatdan aloqadorlikni tashkil etadi. Bu borada biz tarbiyaviy ahamiyatni inobatga olgan holatlarni muallif tilining turli xil voqeliklarni birlashtirish xususiyatiga guvoh bo'lamiz. Bu esa asarlar tarkibida tarixiy obrazlar afsonalar rivoyatlar hikoyatlarni badiiy talqin asosida tasvirga ko'chirish usuli ham mavjuddir. Ayni bu kabi usullarda obraz va xususiyatlarini ifodalashda ko'plab qahramonlardan ko'ra yakka va bir necha obrazlarni foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu borada Isajon Sulton hikoyalari ham o'z tasirli darajasiga ko'ra ancha yuqoridir.

“Demak portret yaratish ko'proq yozuvchining niyyati va uslubidan kelib chiqadi. Misol tariqasida Abdulla Qodiriyning “O'tkan kunlar” asarida Sodiq obrazi kitobxonga quyidagicha tanishtiriladi. Yigirma ikki yoshlar chamasida bo'lg'an bu yigit sariq tanliq, ukking ko'zidek chaqchayib, o'ynab va yonib turg'an qizil ko'zlik, yuziga parchinlangandek yuza (puchug) burunlik, manglayi qancha tashqariga o'sib chiqqan bo'lsa, yuzi o'shancha ichkariga ketkan, qisqasi vaqtsizroq yaratilib qolgan bir mahluq edi. Asarda Sodiqning razil qilmishlari, hudbinligi, hiyonatkorligi, nafaqat uning asardagi voqealardagi ishtiroki, balki portret chizgilaridan ham bilish mumkin”. [3] Har bir asarda u goh kichik janrdagi hikoyami, katta janrdagi roman mi bo'lishidan qat'iy nazar unda xalq og'zaki ijodining unsurlari sezilib turadi. Sababi har qanday ijodkor eng ,avvalo, xalq ijodiyatiga tayangan holdagina tarix zarvaraqlariga muhrlanadigan ijodiyat namunasini yaratishi mumkin. Bundan tashqari yaratilajak asarni asosan shu millat vakillari(masalan: qozoq adabiyoti vakili tomonidan yaratilgan asarlarni ko'proq qozoq xalqining o'qishi) o'qiganligi bois, albatta, xalq tiliga yaqin bo'lgan iboralar ishlatilmasa asar o'zining to'laqonli mazmun-mohiyatini yo'qotadi. Jumladan: Bu hikoyada ham ertaklarimizga xos bo'lgan “Yo'l yurarmish,yo'l yursayam mo'l yurarmish...” ya'ni nasrdagi qofiya - saj san'ati vositasi ila “Ota” personajining timsolida barcha otlarga xos bo'lgan xususiyatni ham ifodalagan desak xato bo'lmaydi. Chunki Ota bu yerda tirikchilik vaji ila olis safarga qotlanmoqda. Bunda aynan yo'l uni ham anglatadi. Negaki, xalqimizda “umr yo'llari” iborasining ishlatilishi ham bejiz emasdir.Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, Isojon Sulton ijodiyatining har bir qismida xalq og'zaki ijodining tarovati sezilib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Maxmidjonov Shoxruxbek Dilshod o'g'li “o'zbek adabiyotshunosligida badiiy obraz masalasining qiyosiy talqini” maqola. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences – 2023 yil
2. D.Quronov Adabiyotshunoslik lug'ati. T.:Akademnashr.2010. –B 378